Sanjarov Zuxriddin Dilshod o'g'li, Astonaqulov Muzaffar Muxsin o'g'li	
TIJORAT BANKLARINING RESURS BAZASI BARQARORLIGINI TAVSIFLOVCHI KO'RSATKICHLAR	781
Bolibekov Shahboz Baxodir o'g'li	
MOLIYA-KREDIT JARAYONLARI: INVESTITSION FAOLLIKNI TA'MINLASH MEKANIZMI SIFATIDA	787
Madaminov In'omjon Ozodovich	
YASHIL IQTISODIYOTDA RESURLARDAN SAMARALI FOYDALANISHNING NAZARIY ASOSLARINI TAKOMILLASHTIRISH MEKANIZMLARI	792
Karimov Islombek Bekpo'lat o'g'li	
OLIY TA'LIMDA ILMIY TADQIQOTLAR VA ISHLAB CHIQRISH INTEGRATSIYASI SAMARADORLIGI	798
Uzaydullayev Sherzod Shukurullayevich	
XUSUSIY MAKTABLARNING BOSHQARUV TIZIMINI QAROR QABUL TIZIMLARI VA O'RGANUVCHI ANALITIKASI YORDAMIDA YANGILASHNING YO'LLARI	802
Esanova Shohida	
MOLIYA BOZORIDA TIJORAT BANKLARI RAQOBATBARDOSHLIGINI OSHIRISHDA ISLOMIY MOLIYA INSTRUMENTLARIDAN FOYDALANISH MEKANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH	812
Abduraxmanova Matluba Maxamadaminovna	
KORXONALARDA KREDITOR QARZDORLIKNI BARTARAF ETISH YO'LLARI	819
Mirzaev Ozod Furkatovich	
ЛЕКСИЧЕСКАЯ КОМПЕТЕНЦИЯ КАК КЛЮЧЕВОЙ КОМПОНЕНТ ПРОДУКТИВНОЙ ПИСЬМЕННОЙ РЕЧИ	824
Киличева Феруза Бешимовна	
MODERN MECHANISMS FOR MONITORING REGIONAL DEVELOPMENT IN THE CONTEXT OF DIGITAL ECONOMY	828
Karimova Shirin Zokhid qizi	



АЛЬТЕРНАТИВНЫЕ МЕТОДЫ КРЕДИТНОГО СКОРИНГА ДЛЯ НАСЕЛЕНИЯ БЕЗ БАНКОВСКОЙ ИСТОРИИ В УЗБЕКИСТАНЕ	833
Шухратова Мадинабону Икром кизи	
SHAHAR EKOLOGIYASI: SHAHAR EKOTIZIMLARI VA BARQAROR RIVOJLANISH	841
Erkiniva Mukarram Olimjon qizi	
CHAKANA SAVDO XIZMATLARINI KO'RSATUVCHI KORXONALARDA SAMARADORLIKNI OSHIRISHNING XORIJIY MAMLAKATLAR TAJRIBASI	845
Abdug'aniyev Oybek Akmaljon o'g'li	
KUZATUV KENGASHI XUSUSIYATLARINING KORPORATIV BOSHQARUV SAMARADORLIGIGA TA'SIRI: NAZARIY VA KONSEPTUAL YONDASHUV	850
Jumayeva Go'zal Sherxon qizi	
EKONOMETRIK MODELLASHTIRISH NATIJALARI NODAVLAT NOTIJORAT TASHKILOTLARI FAOLIYATINI BOSHQARISHDA MUHIM AMALIY AHAMIYAT	854
Sattorov Firdavs Ziyodullayevich	
RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR ASOSIDA KICHIK BIZNES VA TADBIRKORLIKNI RIVOJLANTIRISHDA TIJORAT BANKLARINING O'RNI	858
Abduholikov Kamoldin Mahammadjonovich	
SANOAT KORXONALARINING HUDUDLAR KESIMIDAGI RIVOJLANISH TENDENSIYALARINI STATISTIK TAHLIL QILISH	862
Muydinov Xusniddin Nuriddin o'g'li	
O'ZBEKISTONDA XIZMATLAR EKSPORTINI RIVOJLANTIRISHNING EKOLOGIK JIHATLARI	867
Qodirjonov Adxamjon Muxtorjon o'g'li	



UDK 338.484:504

O'ZBEKISTONDA XIZMATLAR EKSPORTINI RIVOJLANTIRISHNING EKOLOGIK JIHATLARI

Qodirjonov Adxamjon Muxtorjon o'g'li

Toshkent Kimyo xalqaro universiteti Namangan filiali dotsenti

Email: a.qodirjonov@kiut.uz

ORCID: 0009-0003-3022-6879

Annotatsiya. Bugungi kunda mamlakat eksportining qariyb 30 foizi xizmatlar eksportiga to'g'ri kelmoqda. Ayniqsa, turizm va transport xizmatlarining ulushi yuqori bo'lib, har ikki soha ekologik oqibatlarining yuqori ekani bilan ajralib turadi. Maqolada eksport hajmini cheklamagan holda sohaning atrof-muhit uchun salbiy ta'siri kamaytirish imkoniyatlari horij tajribasi asosida o'rganib chiqilgan.

Kalit so'zlar: ekologiya, SO₂, eksport, transport, turizm, barqaror rivojlanish.

Abstract. Today, about 30 percent of the country's exports are services. The share of tourism and transport services is especially high, and both sectors are distinguished by their high environmental impact. The article examines the possibilities of reducing the negative impact of the sector on the environment without limiting the volume of exports, based on foreign experience.

Key words: ecology, CO₂, export, transport, tourism, sustainable development.

Аннотация. Сегодня около 30 процентов экспорта страны приходится на услуги. Особенно высока доля туризма и транспортных услуг, причем оба сектора отличаются высоким воздействием на окружающую среду. В статье, на основе зарубежного опыта, рассматриваются возможности снижения негативного воздействия сектора на окружающую среду без ограничения объема экспорта.

Ключевые слова: экология, CO₂, экспорт, транспорт, туризм, устойчивое развитие.

KIRISH

Jahon mamlakatlari barqaror rivojlanishni ustuvor yo'nalish sifatida ajratib olgan bir vaqtda xalqaro savdoda xizmatlar ulushining yuqori sur'atlar bilan o'sishi mazkur sohaning atrof-muhitga bo'lgan ta'sirini o'rganishning ahamiyatini oshiradi. Barqaror rivojlanish konsepsiyasi iqtisodiy rivojlanishning ijtimoiy va ekologik jihatdan ham ijobiy natijalar bilan kechishini nazarda tutadi va yiliga o'rtacha 7–8 trillion AQSH dollari BMTning Barqaror rivojlanish maqsadlari dasturi doirasida sarf qilinmoqda. O'zbekiston ham 193 mamlakat qatorida ushbu dastur bo'yicha chora-tadbirlar olib bormoqda. Iqtisodiy faoliyatni tashkil etishda yuqoridagi dastur tamoyillariga asoslanish mamlakatimizning xalqaro maydondagi nufuzi ortishiga ham ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Shu jihatdan eksportning salmog'li qismini ta'minlab berayotgan xizmatlar sohasining barqaror rivojlanishi mavzusi yuqori ahamiyatga ega.¹

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

O'zbekiston xizmatlar eksportida transport va turizm sohasining ulushi yuqori bo'lgani sababli ishning ushbu qismida asosiy e'tibor mazkur ikki tarmoqning ekologik xususiyatlarini o'rganishga e'tibor qaratildi. Transport tizimining barqarorligi mezonlari hamda uni xarakterlovchi ko'rsatkichlari tizimini jahon tajribasi misolida Krist Mixyon va Adjo Amekudzi o'rganib chiqqan (Christy va Amekudzi, 2005)². Unda transport tizimining barqarorligi bo'yicha aniq belgilangan barqarorlik ko'rsatkichlari mavjud emasligi ta'kidlangan hamda transport infratuzilmasining aholi ijtimoiy hayotidagi roli hamda atrof-muhit, tabiatga ta'sirini ko'rsatib beruvchi indikatorlarni ajratib olish hamda loyihalashda ushbu ko'rsatkichlar monitoringini amalga oshirish bo'yicha takliflar ishlab chiqilgan.

¹ <https://news.un.org/en/story/2023/09/1140997>

² Christy Mihyeon Jeon, Adjo Amekudzi, Addressing Sustainability in Transportation Systems: Definitions, Indicators, and Metrics JOURNAL OF INFRASTRUCTURE SYSTEMS © ASCE / MARCH 2005 /



Robert Jourmard va Xenrik Gudmundson esa transport barqarorligi ko'rsatkichlari bo'yicha 3 turdagi mezonlarni ajratib ko'rsatgan (Jourmard va Gudmundsson, 2010)³ :

- iqtisodiy – narx, samaradorlik, biznes faoliyat
- ijtimoiy – soliq yuki, salomatlik, ta'lim, jamiyat farovonligi
- atrof-muhit – bioxilma-xillik, ifloslanish, iqlimni asrash, populyatsiyani saqlash

Shuningdek, qator ishlar transport tizimining aynan ekologik izlarini o'rganishga bag'ishlangan. Xususan, Xolmatov va Xoeckstra muallifligidagi maqola turli yoqilg'i turlaridan foydalanuvchi transport vositalarining ta'sirini taqqoslab, quyosh panellari bilan jihozlangan vositalarning har bir kilometr uchun hisoblangan ta'siri eng past bo'lishini ko'rsatib bergan (Holmatov va Hoekstra, 2020)⁴. Bir guruh olimlarning ishlarida esa ushbu faoliyatning salbiy oqibatini bartaraf etish va yumshatishga qaratilgan chora-tadbirlar ishlab chiqilgan. Jumladan, Tehron misolida transportlarning SO₂ emissiyasi miqdori aniqlangan, transport turlari zararliligi bo'yicha guruhlariga ajratilgan hamda uning salbiy ta'siri kamaytirish, chiqindi gazlarni bartaraf etish bo'yicha yashil hududlar tashkil etish, uning miqdoriy va sifat xususiyatlari taklif etilgan (Ebadi va boshqalar, 2016)⁵.

Turizm faoliyatining barqaror rivojlanishi bo'yicha yuqoridagi kabi aniq bir ko'rsatkichlar tizimi ishlab chiqilmagani, balki qator olimlar atrof-muhitga bo'lgan bosimni miqdoriy tadqiq etish bo'yicha turli yondashuvlardan foydalanishi ta'kidlangan (Miralles va boshqalar, 2023)⁶. Turizm bir vaqtning o'zida bir necha yo'nalishlarda atrof-muhitga ta'sir o'tkazishi nuqtayi nazaridan uning ekologik izlarini⁷ aniqlash metodologiyasi murakkab hisoblanadi. Xususan, suv iste'moli, issiqxona gazlari, chiqindilar hamda tabiiy muhitga ta'sir uning asosiy yo'nalishlari sifatida ko'riladi. Ushbu yo'nalishlarni tasniflashda turistlar faoliyati bilan bog'liq to'rt guruhga ajratish taklif etiladi: yashash joyi, oziq-ovqat, mobillik va turistik tadbirlar (Mancini va boshqalar, 2018)⁸. Ayni muallif turizmning ekologik ta'siri o'rganishda tur paketlar kesimida yondashish lozimligini ta'kidlaydi (Mancini va boshqalar, 2022)⁹. Bu yondashuv ekologik izni nazorat qilish va boshqarishdagi eng asosiy muammolarni yengillashtirishga yordam beradi hamda yuqoridagi to'rt guruh ta'sirlarni alohida-alohida tadqiq etishga asoslanadi. Shuningdek, eng asosiy ekologik ta'sir turistlarning energiya iste'moli natijasida issiqxona gazlarining ajralishi natijasida hosil bo'lishi qator mamlakat va shaharlar misolida ko'rsatib berilgan (Pousa-Unanue, 2025)¹⁰. Xitoyning Xuangshan shahri misolida amalga oshirilgan tadqiqot xulosasiga ko'ra quyidagilarni ajratib ko'rsatish mumkin (ZHANG Jinhe va ZHANG Jie, 2004)¹¹:

- turistlarning asosiy ta'siri transport va oziq-ovqat bilan bog'liq;
- turistlarning ekologik izi mahalliy aholining mos ko'rsatkichidan bir necha marotaba yuqori bo'lishi mumkin;
- turizm shakli, turistlar oqimi va iste'mol hajmi ta'sir ko'lamini belgilab beruvchi asosiy omillardan hisoblanadi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ushbu tadqiqotda adabiyotlar tahlili asosida xizmatlar eksportining ekologik ta'sirini xarakterlovchi ko'rsatkichlar tizimi shakllantiriladi hamda uning asosida omillarning SWOT tahlili va rasmiy statistik manbalardan olingan ma'lumotlarning dinamikasi tahlili amalga oshiriladi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Bugungi kunda O'zbekistonda xizmatlar eksporti yildan-yilga ortib bormoqda. Xususan, transport va turizm tarmoqlarining eksport salohiyatidan foydalanish darajasi yuqori sur'atlarda o'smoqda. Agar 2021-

- Robert Jourmard, Henrik Gudmundsson. Indicators of environmental sustainability in transport. INRETS. INRETS, pp.422, 2010, Recherches, A. Lauby. fhal-00492823
- Holmatov, B., & Hoekstra, A. Y. (2020). The environmental footprint of transport by car using renewable energy. *Earth's Future*, 8, e2019EF001428. <https://doi.org/10.1029/2019EF001428>
- Ebadi A., Moharram Nejad N., Rahnamaee M., Motesadi Zarandi S. Determining the ecological footprint of vehicles in Tehran, Iran. *Applied ecology and environmental research* 14(3):439-450. 2016 y.
- Casals Miralles, Cristina & Barioni, Debora & Mancini, Maria & Colón, Joan & Roura, Mercè & Salas, Sergio & Argelaguet, Laia & Galli, Alessandro. (2023). The Footprint of tourism: a review of Water, Carbon, and Ecological Footprint applications to the tourism sector. *Journal of Cleaner Production*. 422. 138568. 10.1016/j.jclepro.2023.138568
- https://lifestyle.sustainability-directory.com/term/tourism-environmental-footprint/?__r=1.bbf7f753a167531c5a5b87c34f3f0f63
- Mancini, M. S., Evans, M., Iha, K., Danelutti, C., & Galli, A. (2018). Assessing the ecological footprint of ecotourism packages: A methodological proposition. *Resources*, 7(2), 38.
- Maria Serena Mancini etc. Ecological Footprint and tourism: Development and sustainability monitoring of ecotourism packages in Mediterranean Protected Areas, *Journal of Outdoor Recreation and Tourism*, Volume 38, 2022, <https://doi.org/10.1016/j.jort.2022.100513>.
- Pousa-Unanue, Aitziber, Aurkene Alzua-Sorzabal, Roberto Álvarez-Fernández, Alexandra Delgado-Jiménez, and Francisco Femenía-Serra. 2025. "Calculating the Carbon Footprint of Urban Tourism Destinations: A Methodological Approach Based on Tourists' Spatiotemporal Behaviour" *Land* 14, no. 3: 534. <https://doi.org/10.3390/land14030534>
- ZHANG Jinhe, ZHANG Jie. Touristic Ecological Footprint Model and Analysis of Huangshan City in 2002[J]. *Acta Geographica Sinica*, 2004, 59(5): 763-771 <https://doi.org/10.11821/xb200405015>



yilda transport xizmatlarining ulushi xizmatlar eksportida 67,6 foizni tashkil etgan bo'lsa, ko'rsatilgan xizmatlar miqdori qariyb 2 marotaba ortgan bo'lishiga qaramasdan, 2025-yilda uning ulushi 2 karra qisqarib, 33,0 foizga teng bo'ldi. Turizm xizmatlari eksporti hajmi esa 11,6-martaga o'sdi va tahlil etilayotgan davr boshidagi 16,3 foizlik ulushdan 50,0 foizgacha ko'tarildi. Shu o'rinda ta'kidlash lozimki, umumiy xizmatlar eksporti 3,8-martaga o'sgan bo'lsa-da, uning tarkibida ixtisoslashuv darajasi deyarli o'zgarmagan va 2025-yilda 2 tarmoq ulushi 83,0 foizni tashkil etgan. Bu besh yil avvalgi ko'rsatkichga nisbatan atigi 0,9 birlikka past ko'rsatkich (1-jadval).

1-jadval. O'zbekiston xizmatlar eksporti dinamikasi (million AQSH dollari)¹²

Eksport	2021	2022	2023	2024	2025	5 yillik o'sish (marta)
Xizmatlar eksporti	2581,7	4456,7	5640,4	7204,4	9760,4	3,8
jumladan:						
Transport	1744,1	2204,7	2440,4	2571,5	3219,1	1,85
Safarlar (turizm)	422,1	1609,8	2143,1	3519	4880,3	11,56
Boshqa xizmatlar	415,5	642,2	1056,9	1113,9	1661	4,00
Umumiy xizmatlarga nisbatan ulushi (foizlarda)						
Transport	67,6%	49,5%	43,3%	35,7%	33,0%	
Safarlar (turizm)	16,3%	36,1%	38,0%	48,8%	50,0%	

Shu sababli O'zbekistonda xizmatlar eksportining ekologik jihatlarini tadqiq etishda shu ikki tarmoqqa ixtisoslashuv yetarli hisoblanadi. Tashish va saqlash tizimini ekologik jihatdan optimallashtirish ikki yo'nalishni qamrab oladi:

1. Transport vositalari yoqilg'i turlarini optimallashtirish.
2. Tashish marshrutlarini optimallashtirish.

Birinchi yo'nalishda zamonaviy transport vositalaridan foydalanishni majburiy shaklga o'tkazish, chiqindi gazlar bo'yicha tashuvchi korxonalar uchun cheklovlarni oshirish, shuningdek, transport parkini modernizatsiya qilishga turli moliyaviy imtiyozlar bilan rag'batlantirish orqali erishish mumkin. Xususan, Prezidentning tegishli farmoni bilan elektromobillarni quvvatlantirish stansiyalari, ularning komponentlari va servis infratuzilmasi uchun texnologik asbob-uskunalar 2026-yil 1-yanvardan 2028-yil 1-yanvarga qadar bojxona bojidan ozod qilindi¹³. Bundan oldin tasdiqlangan hujjatga ko'ra esa mahalliy ishlab chiqaruvchilarni yangi ekologik jihatdan takomillashgan transport vositalari ishlab chiqarishga qaratilgan edi¹⁴.

Ikkinchi yo'nalish esa, asosan, yo'l va transport harakatini tartibga solish organlari, mahalliy va respublika darajasida yo'llarni ta'mirlash va yaxshi holatini ta'minlashga mas'ul idoralar hamda logistika kompaniyalarining faoliyati bilan bevosita bog'liq bo'lib, tashilayotgan yuk hajmining barqaror o'sishini ta'minlagan holda tonna/kilometrni optimallashtirishni nazarda tutadi. Bunda ikki omilning ahamiyati yuqori – yo'llarning sifati va tirbandlikni nazorat qilish; tashish, saqlash va qayta taqsimlash punktlarining mavjudligi.

Avtomobil transportida tashishning ekologik izi nisbatan yuqori ekanini inobatga olsak, import va tranzit yuklarini tashishda asosiy 5 chegara postlarini ko'rsatib o'tish mumkin. Bular Toshkent, Andijon, Buxoro, Surxandaryo viloyatlari va Qoraqalpog'iston Respublikasi hududlarida joylashgan bo'lib, aynan ushbu hududlarda logistika markazlari va qayta taqsimlash punktlari faoliyatini tashkil etilishi mamlakatning turli hududlariga kelishi lozim bo'lgan tovar va mahsulotlarni to'g'ri taqsimlash hisobiga bosib o'tilishi lozim bo'lgan kilometrlarga nisbatan yuk miqdorini oshirish imkonini beradi. Shunday punktlarning Samarqand, Namangan viloyatining Pop tumanida ham tashkil etilishi asosiy manzillarga olib boruvchi yo'llar kesishmasidan samarali foydalanish imkonini berishi mumkin.

Yuqoridagi ikki yo'nalish transport xizmatlarining ekologik izini iqtisodiy ko'rsatkichlar hajmiga salbiy ta'sir ko'rsatmagan holda yengillashtirish imkonini beradi. Mamlakatimizda umumiy xizmatlar eksportining atrof-muhitga salbiy ta'sirini kamaytirish uchun buning o'zi sezilarli natija bermasligi mumkin. Chunki avvalgi jadval tahlilidan ko'rdikki, xizmatlar eksportida turizmning salmog'i sezilarli darajada yuqori.

¹² Manba: <https://siat.stat.uz/reports-filed/1496/table-data> O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi ma'lumotlari

¹³ "Aholining alohida turdagi iste'mol mahsulotlariga bo'lgan ehtiyojlarini kafolatli ta'minlashga hamda iqtisodiyotning ayrim tarmoqlarini yanada qo'llab-quvvatlashga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi Prezident Farmoni (PF-269-son, 30.12.2025 y.)

¹⁴ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 19.12.2022-y. PQ-443-son "Elektromobillar ishlab chiqarishni tashkil etishni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarori



Turistlar mobilligi natijasida bo'luvchi ta'sirlarni yumshatish yuqoridagi kabi hal etilishi mumkin. Bunga qo'shimcha ravishda tur paket marshrutlarini optimallashtirish bo'yicha takliflar berilishi mumkin. Lekin ularning yashash va ovqatlanish, suv va energiya iste'moli bo'yicha ta'siri yumshatilishida keng qamrovli ishlar amalga oshirilishi lozim. Bu ishlarning asosiy qismi turistlarning ekologik savodxonligi, xabardorligi va mas'uliyatini oshirish hisobiga bajariladi.

Umuman, turizmning ekologik oqibatlarini yumshatish, salbiy ta'sirini kamaytirish uchun uch guruh omillarni inobatga olish va shundan kelib chiqqan holda yondashish lozim:

- turistlar soni va ularning safar yo'nalishlari;
- iste'mol xususiyatlari;
- manzillar siyosati (qabul qiluvchi maskanlar tartib-qoidalari).

Turistlarning ekologik izini o'lchashda foydalanilishi lozim bo'lgan ko'rsatkich taqdim etilgan xizmatning hajmidan kelib chiqib belgilanishi eng ma'qul yechim hisoblanadi. Shunda turistlarning soni va ularning xarajati (tur paket narxi) o'rtasidagi bog'liqlik ham inobatga olinadi. Odatda turistlar sonining o'ziga nisbatan olinishi xulosa berishda iqtisodiy ahamiyatni to'la aks ettirmasligi mumkin. Chunki atrof-muhit va iqtisodiyot uchun turistlarning sonigina emas, ular qabul qiluvchi mamlakat uchun qancha daromad tushirayotgani ham muhim.

Bu esa turizmni rivojlantirishga qaratilgan siyosat nafaqat tashrif buyuruvchilarning sonini oshirishga, balki iste'molchilarning xarid qobiliyati yuqori bo'lgan segmentlari ulushini ham oshirishga qaratilishi lozim.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Yuqoridagilarni inobatga olgan holda, xizmatlar eksportining iqtisodiy ahamiyati yuqori ekanini ta'kidlash lozim. Jami eksportning qariyb 30 foizini ta'minlab turgan ushbu sohada mavjud salohiyatdan samarali foydalanish evaziga uning hajmi va ulushini yanada oshirish mumkin. Biroq ushbu miqdoriy o'zgarish o'zining salbiy ta'sirini, birinchi navbatda, atrof-muhitga ko'rsatishi mumkin. Ayniqsa, barqaror rivojlanish tamoyillariga yuqori e'tibor qaratilayotgan bugungi kunda masalaning ushbu jihatiga jiddiy yondashish lozim.

Transport yo'nalishi bo'yicha birinchi navbatda monitoring tizimini takomillashtirish va marshrutlar bo'yicha tashilayotgan yuklar, manzillar va miqdorga oid ma'lumotlar to'plash sifatini oshirish, uning tahlilini amalga oshirish orqali Samarqand, Buxoro va Namangan viloyatlarida tranzit uchun logistik qayta taqsimlash maskanlari tashkil etish imkoniyatini o'rganib chiqish, uning moliyaviy jihatdan rentabelligini hisoblash lozim.

Turistik xizmatlarning ekologik izlarini yaxshilashda esa turistlarning ekologik madaniyati va xabardorligini oshirish maqsadida kutib olish, tashrif buyurish va chegara punktlari, aeroport va vokzallarda ommaviy axborot vositalari, tashqi reklama obyektlari yordamida targ'ibot ishlarini olib borishni kuchaytirish lozim.

Bugungi kunda mamlakatimizning ba'zi mehmonlari, ayniqsa, Quyi Amudaryo mintaqasida turli ekologik murojaatlar joylangan bo'lib, ushbu amaliyotni butun mamlakat bo'yicha turistlarni joylashtirish maskanlariga majburiy tartibda kiritish lozim.

Shuningdek, turistlar tashrif buyuruvchi maskanlarda talab qilinadigan ekologik madaniyatga rioya etilishi uchun zaruriy sharoitlarni ham ta'minlab berishga katta e'tibor qaratish lozim.

Ushbu ishlar amalga oshirilishi barqaror iqtisodiy o'sishga erishishni, bunda atrof-muhit va tabiatning insonlar uchun qulay va sog'lom muhitini saqlab qolishni ta'minlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Christy Mihyeon Jeon, Adjo Amekudzi, Addressing Sustainability in Transportation Systems: Definitions, Indicators, and Metrics JOURNAL OF INFRASTRUCTURE SYSTEMS © ASCE / MARCH 2005 /
2. Robert Jourard, Henrik Gudmundsson. Indicators of environmental sustainability in transport. INRETS. INRETS, pp.422, 2010, Recherches, A. Lauby. fhal-00492823
3. Holmatov, B., & Hoekstra, A. Y. (2020). The environmental footprint of transport by car using renewable energy. Earth's Future, 8, e2019EF001428. <https://doi.org/10.1029/2019EF001428>
4. Ebadi A., Moharram Nejad N., Rahnamaee M., Motesadi Zarandi S. Determining the ecological footprint of vehicles in Tehran, Iran. Applied ecology and environmental research 14(3):439-450. 2016 y.
5. Casals Miralles, Cristina & Barioni, Debora & Mancini, Maria & Colón, Joan & Roura, Mercè & Salas, Sergio & Argelaguet, Laia & Galli, Alessandro. (2023). The Footprint of tourism: a review of Water, Carbon, and Ecological Footprint applications to the tourism sector. Journal of Cleaner Production. 422. 138568. 10.1016/j.jclepro.2023.138568
6. Mancini, M. S., Evans, M., Iha, K., Danelutti, C., & Galli, A. (2018). Assessing the ecological footprint of ecotourism packages: A methodological proposition. Resources, 7(2), 38.
7. Maria Serena Mancini etc. Ecological Footprint and tourism: Development and sustainability monitoring of ecotourism packages in Mediterranean Protected Areas, Journal of Outdoor Recreation and Tourism, Volume 38, 2022, <https://doi.org/10.1016/j.jort.2022.100513>.
8. Pousa-Unanue, Aitziber, Aurkene Alzua-Sorzabal, Roberto Álvarez-Fernández, Alexandra Delgado-Jiménez, and Francisco Femenia-Serra. 2025. "Calculating the Carbon Footprint of Urban Tourism Destinations: A Methodological Approach Based on Tourists' Spatiotemporal Behaviour" Land 14, no. 3: 534. <https://doi.org/10.3390/land14030534>



9. ZHANG Jinhe, ZHANG Jie. Touristic Ecological Footprint Model and Analysis of Huangshan City in 2002[J]. Acta Geographica Sinica, 2004, 59(5): 763-771 <https://doi.org/10.11821/xb200405015>
10. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 30.12.2025 yildagi "Aholining alohida turdagi iste'mol mahsulotlariga bo'lgan ehtiyojlarini kafolatli ta'minlashga hamda iqtisodiyotning ayrim tarmoqlarini yanada qo'llab-quvvatlashga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PF-269-son Farmoni // <https://lex.uz/ru/docs/-7962944>
11. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 19.12.2022 yildagi "Elektromobillar ishlab chiqarishni tashkil etishni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-443-son qarori // <https://lex.uz/ru/docs/-6316583>
12. <https://news.un.org/en/story/2023/09/1140997>
13. https://lifestyle.sustainability-directory.com/term/tourism-environmental-footprint/?__r=1.bbf7f753a167531c5a5b87c34f3f0f63



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2026. № 3

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>